**Toshkent shahridagi Inha universiteti**

Toshkent shahri, Ziyolilar 9, 100170,
Tel.: (998 71) 289 99 99, www.inha.uz, info@inha.uz

**Inha University in Tashkent**

9, Ziyolilar, Tashkent city, 100170,
Tel.: (998 71) 289 99 99, www.inha.uz, info@inha.uz

№ 26/07-1894-son
2023-yil. «28» 09

**Idora va tashkilotlarga**

O'zbekiston Respubilikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi tegishli "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-76-son Farmonining Raqamlashtirish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "YO'L XARITASI"ning 61-bandini ta'minlash maqsadida "Iqtidorli yoshlarni saralash, qo'shimcha o'qitish hamda xalqaro mehnat bozoriga tayyorlash «IT Skills»" tizimini joriy etish (keyingi o'rinlarda-Loyiha) loyihasining mexanizmi yaratish hamda amalga oshirish rejalashtirilgan.

Loyiha doirasida quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

1. Loyiha platformalarini ishlab chiqish:

1.1. Loyiha platformasini "Veb" versiyasi ishlab chiqish;

1.2. Loyiha platformasini "IOS" va "Android" versiyalarini ishlab chiqish;

1.3. Loyiha platformasini saralash kontentini ishlab chiqish.

2. "IT Skills" loyihasida saralashni tashkillashtirish:

2.1. Loyiha doirasida kelib tushgan barcha ishtirokchilarning natijalarini tahlil qilish;

3. Saralashdan tashqari frilanserlikka tayyorlash:

3.1. Xalqaro mehnat bozorini tahlil qilish va hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

3.2. Xalqaro mehnat bozorini tahlil qilish va hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

3.3. Saralashdan o'ta olmagan yoshlarni frilanserlik ko'nikmalariga o'rgatish;

4. "IT Skills" loyihasida targ'ibot ishlari:

4.1. Targ'ibot materiallari tayyorlash (video, grafik va matn), TV, internet nashrlari va blogerlar orqali tarqatish, tashviqot tadbirlari va uchrashuvlar tashkillashtirish.

Ushbu loyihani amalga oshirish AKT yo'nalishidagi iqtidorli yoshlarning kasbiy yo'naltirishi masalasiga e'tiborini kuchaytirish, ularning ko'nikmalarini takomillashtirish hamda yetakchi IT kompaniyalarda o'z o'rnini topishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Sizning tashkilotingizdan ushbu loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish va loyiha bo'yicha ilovada berilgan namuna ko'rinishida tijoriy taklif berishda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

**Bosh menejer** **R.Qazaqov**

Ijrochi: U.Mamadaliyev
Tel: +998 97 003 31 17

№ 26/07-1894-son tanlov e'loniga ilova

2023-yil. «29» 09

**"Iqtidorli yoshlarni saralash, qo'shimcha o'qitish hamda xalqaro mehnat bozorini tayyorlash "IT Skills" tizimini joriy etish" loyihasini amalga oshirish reja-jadvali.**

| № | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | "IT Skills" "IT Skills" platformasining Veb versiyasini ishlab chiqish | | |
| 2 | "IT Skills" platformasining IOS va Android versiyalarini ishlab chiqish | | |
| 3 | "IT Skills" loyihasida saralashni kontentini ishlab chiqish | | |
| 4 | "IT Skills" loyihasida saralashni tashkillashtirish | | |
| 5 | Saralashdan tashqari Frilanserlikka tayyorlash | | |
| 6 | "IT Skills" loyihasida targ'ibot ishlari Targ'ibot materiallari tayyorlash (video, grafik va matn), TV, internet nashrlari va blogerlar orqali tarqatish, tashviqot tadbirlari va uchrashuvlar tashkillashtirish. | | |